

## ABU NASR FAROBIY HAYOTI VA ILMIY MEROSI

**Muxammadiyev Islomjon G‘ayrat o‘g‘li**

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat

Pedagogika Universiteti

Tarix fakulteti 2-kurs talabasi

Tarix fanlar nomzodi. **N.O‘.Hidirova**

***Annotatsiya.** Hozirgi kunda erishilayotgan yutuqlarning barchasi o‘rta asrlarda yashab o‘tgan allomalarimizning yozib qoldirgan ilmiy meroslar orqali yuzaga kelgan. Bu davrda Sharq mutafakkirlarining asarlari barcha soha bo‘yicha butun dunyo uchun asosiy qo‘llanma hisoblangan va hozirgi kunda ham o‘z ta‘sirini yuqotmagan. Abu Nasr Farobiy falsafa, mantiq, matematika, astranomiya, musiqa kabi bir qancha sohalarda faoliyat olib borgan. Abu Nasr Farobiyning asarlari yunon faylasuflari asarlariga izoh va tahlil bilan yozilgan. Shu kabi allomalarimizning asarlaridan hozirgi kunda ham foydalanib jamiyat rivojlanishi uchun katta hissa qo‘shib kelinmoqda.*

***Kalit so‘zlar:** falsafa, mantiq, Abu Nasr Farobiy, optika, riyoziyot, damashq, buxoro, Sharq uyg‘onish davri, “al -Muallim as-soniy”, “Sharq Arastusi”.*

***Аннотация:** Все достижения, которые достигаются сегодня, были созданы благодаря научному наследию наших ученых, живших в Средние века. В этот период труды восточных мыслителей считались главным ориентиром для всего мира во всех областях и не утратили своего влияния и сегодня. Абу Наср Фараби активно работал в нескольких областях, таких как философия, логика, математика, астрономия, музыка. Работы Абу Насра Фараби написаны с комментариями и анализом произведений греческих философов. Работы наших ученых до сих пор используются, чтобы внести большой вклад в развитие общества.*

***Ключевые слова:** философия, логика, Абу Наср Фараби, оптика, математика, Дамаск, Бухара, Восточное Возрождение, «ал-Муаллим ас-Сани», «Восточный Аристотель».*

***Annotation.** All the achievements that are being achieved today were created through the scientific heritage of our scholars who lived in the Middle Ages. During*

*this period, the works of Eastern thinkers were considered the main guide for the whole world in all fields and have not lost their influence even today. Abu Nasr Farabi was active in several fields such as philosophy, logic, mathematics, astronomy, music. The works of Abu Nasr Farabi were written with comments and analysis of the works of Greek philosophers. The works of our scholars are still being used to make a great contribution to the development of society.*

**Key words:** *philosophy, logic, Abu Nasr Farabi, optics, mathematics, Damascus, Bukhara, Eastern renaissance, "al-Muallim al-Sani", "Eastern Aristotle".*

Abu Nasr Farobiy (to‘liq ismi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzlug‘ Tarxon Forobiy) - falsafa va mantiq sohasida ulkan ishlarni amalga oshirgan faylasuf, o‘z davrining ko‘zga ko‘ringan mutafakkirlaridan biridir<sup>1</sup>. U nafaqat falsafa balki, matematika, astranomiya, tabobat, musiqa, til va adabiyot fanlari doirasida ham faoliyat yuritgan. Shu bois Abu Nasr Farobiy “al -Muallim as-soniy” (“Ikkinchi Muallim”), “Sharq Arastusi” nomlariga sazovor bo‘ldi. U 873-yilda Aris daryosining Sirdaryoga qo‘yiladigan joyida – Shosh - hozirgi Toshkentdan 200-260 km shimoli-g‘arbda joylashgan Farob (O‘tror) degan joyda turkiy qabilaga mansub harbiy xizmatchi oilasida tug‘ilgan. O‘sha davrda Movarounnahrda Somoniylar sulolasi hukmronlik qilayotgan edi. Bo‘lajak faylasuf boshlang‘ich bilimni O‘trorda olgandan so‘ng, o‘qishini Toshkent, Samarqand va Buxoroda davom ettirdi. Abu Nasr Farobiy o‘z bilimlarini yanada chuqurlashtirish maqsadida Arab xalifaligining madaniy markazi- Bag‘dodga yo‘l oladi. Olim yo‘l-yo‘lakay Eronning Ray, Hamadon, Isfahon kabi yirik shaharlarida ham ta‘lim oladi. Bu vaqtda Bag‘dodda Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlaridan kelgan talaba va olimlar to‘plangan edi. Shu bois u ko‘zga ko‘ringan olimlar bilan tanishadi, yunon falsafiy maktabi, turli fan sohalari namoyandalari bilan uchrashib, ulardan ilm sirlarini o‘rganadi. Masalan, Abu Bashir Matta ibn Yunusdan (870—940) yunon tili va falsafasini, Yuhanna ibn Hiylondan (860—920) esa tibbiyot va mantiq ilmini o‘rgandi. Ba‘zi tarixiy manbalarda keltirilishicha, Farobiy 70 dan ortiq tilni bilgan. Taxminan 941-yildan boshlab Abu Nasr Farobiy Damashqda yashab, kamtarona va g‘aribona hayot kechiradi<sup>2</sup>. Abu Nasr Farobiy ilm-fan tarixida yirik mantiqshunos, faylasuf sifatida mashhurdir, uning tarjimai holi haqida tibbiyot tarixiga oid kitob bitgan arab olimi Ibn Abi Usaybia (1203-1270) shunday yozadi: “Abu Nasr Farobiy bir qancha vaqt Bag‘dodda yashaydi, keyin Shom (Suriya)ga ko‘chib kelib, umrining oxiriga qadar shu yerda turib qoladi. U yetuk faylasuflardan, fozil donishmandlardan edi, hikmat-falsafaga oid fanlarni mukammal bilardi. Riyoziyot

<sup>1</sup> Irisov Abdusodiq. Farobiy adib. – Toshkent.: O‘zSSR FA. Fan.1975. – B. 3.

<sup>2</sup> Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent.: “O‘zbekiston milliy ensiklopidiyasi” davlat ilmiy nashriyoti. 2012. – B. 3

(matematika), falakiyot (astronomiya) ilimlariga mohir, pokiza, yirik alloma kishi edi. Mol-dunyo bilan ishi yo‘q edi, “o‘lmas ovqat”ga chidab yashaydigan qanoatli odam edi. Uning fe‘l atvori xuddi qadimgi faylasuf-hakimlar odobiga uxshardi. U tib ilmidan ham durustgina xabardor edi. Bu ilmga oid nazariyani yaxshi bilar edi”<sup>1</sup>.

Abu Nasr Farobiy Aleppo (Halab) hokimi Hamdamid (hukmronlik yillari 943—967) davriga kelib olimlarning homiysi sifatida taniladi va Halabdagi hayoti sermahsul bo‘ladi, bu yerda o‘zining ko‘plab asarlarini yozadi. Abu Nasr Farobiy 949—950 yillarda Misrda, so‘ngra Damashqda yashaydi va shu yerda umrining oxirgi kunlarini o‘tkazadi. U Damashqdagi “Bob as-Sag‘ir” qabristoniga dafn etilgan. Xuddi shu ma‘lumotlarni Ibn Abu Usaybia, Ibn Xallikon, Abu-l-fido o‘z asarlarida keltirib o‘tadi. Ammo al-Bayhaqiy takidlashicha “Abu Nasr Farobiy Damashqdan Asqalonga safar qilgan vaqtda yo‘lda qaroqchilar to‘dasi tomonidan qatl etiladi. Bundan habardor bo‘lgan Shom amirlari qaroqchilarni topib, Farobiy ko‘milgan qabrga yog‘och qoqib qaroqchilarni shu yog‘ochga osib qo‘yishadi”<sup>2</sup>.

Olimning ilm-fan oldidagi xizmatlaridan biri uning yunon mutafakkirlari asarlarini sharhlaganligi va ularni yangi g‘oyalar bilan boyitganligidir. Abu Nasr Farobiy Platon, Arestotel, Zepon, Aleksandr Afrodiziy, Yevklid, Ptalomey, Porfiriy asarlariga sharh yozgan<sup>3</sup>.

Abu Nasr Farobiy 160 dan ortiq asar yozgan. Lekin ularning aksariyati bizgacha yetib kelmagan. Shunday bo‘lsada, Abu Nasr Farobiyning boy merosi hozirgi kunda keng o‘rganilmoqda va o‘zbek, qozoq, rus tillariga tarjima qilinib nashr etilmoqda. Abu Nasr Farobiyning asosiy asarlari: “Falsafani o‘rganishdan oldin nimani bilish kerakligi to‘g‘risida”, “Falsafiy savollar va ularga javoblar”, “Ensiklopediyadan mantiq bo‘limining bir qismi”, “Taliqot” (sharhlar), “Inson a‘zolari haqida risola”, “Bo‘shliq haqida maqola”, “Donolik asoslari”, “Falsafaning ma‘nosi va kelib chiqishi”, “Hayvon a‘zolari, funksiyasi va potensiyasi”, “Mantiq to‘g‘risidagi risolaga muqaddima”, “Mantiq ilmiga kirish”, “Ilmlarning kelib chiqishi haqida”, “Musiqqa haqida katta kitob”, “Baxtsaodatga erishuv haqida”, “Masalalar mohiyati”, “Buyuk kishilarning naqlari”, “Ihso al-ulum”, “Hikmat ma‘nolari”, “Aql to‘g‘risida”, “Ilmlar va san‘atlar fazilati”, “Qonunlar haqida kitob”, “Substansiya haqida so‘z”, “Falak harakatining doimiyliigi haqida”, “She‘r va qofiyalar haqida so‘z”, “Ritorika haqida kitob”, “Hajm va miqdor haqida so‘z”, “Musiqqa haqida so‘z”, “Fizika usullari haqida kitob”, “Fazilatli xulqlar”, “Fozil shahar aholisining fikrlari”, “Jismlar va aksidensiyalarning ibtidosi haqida”, “Aristotel “Metafizika” kitobining maqsadi

<sup>1</sup> Abu Nasr Farobiy. Fazilat baxt-saodat va kamolot haqida. – Toshkent.: “Mutafakkir” xalqaro xayriya jamg‘armasi. Yozuvchi. 2001. – B. 3

<sup>2</sup> Irisov Abdusodiq. Farobiy adib. – Toshkent.: O‘zSSR FA. Fan. 1975. – B. 13

<sup>3</sup> Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent.: Yangi asr avlodi. 2022. – B. 5

to‘g‘risida” va boshqa Abu Nasr Forobiy asarlari XX-asrning 70—80-yillarida Toshkent va Olmaotada “Falsafiy risolalar”, “Mantiqiy risolalar”, “Matematik risolalar”, “Ijtimoiy-axloqiy risolalar”, “Tadqiqotlar va tarjimalar” nomlari ostida rus tilida nashr etilgan.

Abu Nasr Farobiy ilk o‘rta asrda, Sharq Uyg‘onish davrida ijod etdi. Bu davr ishlab chiqaruvchi kuchlarning o‘ssishi, hunarmandchilik, irrigatsiya inshootlarining yuksalishi, yangi shaharlarning bunyod etilishi, madaniy va ma‘naviy hayotning ravnaq topishi bilan ajralib turadi. Abu Nasr Farobiy ilmlarni quyidagicha tasniflaydi: 1) til haqidagi ilm. U yetti bo‘limdan iborat (grammatika, orfografiya, she‘riyat, to‘g‘ri yozuv va boshqalarni o‘z ichiga oladi); 2) Mantiq. Sakkiz bo‘limdan iborat bo‘lib (tushuncha, muhokama, xulosa, sillogistika, dialektika, sofistika va boshqalarni o‘z ichiga oladi); 3) Matematika, yetti mustaqil ilm (arifmetika, geometriya, astronomiya, mexanika, optika, sayyoralar, musiqa va og‘irlik haqidagi ilmdan iborat); 4) Tabiiy ilmlar, ilohiy ilmlar yoki metafizika; 5) Shahar haqidagi ilm (siyosiy ilm, fiqh, axloqshunoslik va kalom kiradi)<sup>1</sup>.

Abu Nasr Farobiyning fanlar tasnifida tabiiy va ijtimoiy fanlar o‘z vazifasiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Masalan, matematika, tabiatshunoslik va metafizika ilmlari inson aql-zakovatini boyitishga xizmat qiladi, grammatika, she‘riyat va mantiq esa fanlardan to‘g‘ri foydalanishni, bilimlarni boshqalarga to‘g‘ri tushuntirish, ya‘ni akliy tarbiya uchun xizmat qiladi. Siyosat, axloqshunoslik va pedagogikaga oid bilimlar kishilarning jamoaga birlashuvi, ijtimoiy hayotning qonun va qoidalarini o‘rgatadi.

Xulosa qilib aytganda Abu Nasr Farobiy IX-XII asrda yashab faoliyat yuritgan boshqa Sharq allomalari kabi ko‘plab fan sohalarida ijod qildi va ularni rivojlanishiga munosib hissa qo‘shdi. U yunon olimlarining asarlariga murojat qilib ayrim asarlariga sharhlar yozdi. Abu Nasr Farobiyning ilmlar tasnifi to‘g‘risidagi ma‘lumotlari o‘rta asrda turli fanlarning rivojida muhim ahamiyatga ega bo‘lib va keyingi davrlarda yashagan olimlar uchun qo‘llanma vazifasini o‘tadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Sh.Mirziyoyev. Islom taraqqiyot banki 46-yillik yig‘ilishida so‘zlagan nutqidan.
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Forobiy>
3. Irisov Abdusodiq. Farobiy adib. – T.: 1975.
4. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: 2012.
5. Abu Nasr Farobiy. Fazilat baxt-saodat va kamolot haqida. – T.: 2001.
6. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: 2022.

<sup>1</sup> Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent.: Yangi asr avlodi. 2022. B. 7-8